

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI

Xazirbayeva Mehribon

Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Annatsiya: Ushbu tezisda, Qoraqalpog‘iston hududida yashaydigan turkiy xalqlarning nikoh to‘yi - marosimi bilan bog‘liq etnografizmlarning leksik birliklari, qardosh xalqlar tilida boshqa variantda qo‘llanilishini tadqiq qilishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: urf-odat, milliy qadriyatlar, madaniy meros, oqlik, sovchilik, rozilik, hududiy odatlar.

Har bir xalqning o‘z an‘ana va qadriyatlariga xos bo‘lgan bir qancha urf-odat va milliy marosimlari mavjud. To‘y marosimlari barcha xalqlarda qadimdan shakllangan ham etnografik, ham umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Ularda muayyan xalqning azaliy urf-odatlarini, an‘analari, milliy madaniyati ifodalangan bo‘lib, ularga nisbatan madaniy meros, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy an‘ana va madaniy fond kabi birlashmalar qo‘llanilib kelinmoqda.¹

Yurtimiz boy qadimiy tarixga egadir. Asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan bir qancha urf-odatlarimiz mavjud. Mana shu urf-odatlarimizdan eng ko‘p saqlanib qolganligini to‘ylarimizda ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tezisda nikoh to‘yida qo‘llaniladigan urf-odat va marosimlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantikasi, ularning turkiy xalqlar tilidagi variantlarini qiyoslab o‘rganishga harakat qildik.

Nikoh to‘yigacha bo‘lgan davrda urf-odat va marosimlarni ifodalovchi leksik birliklar semantikasi. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman xalqlari urf-odatlarining orasidagi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari bor. Nikoh to‘yigacha bo‘lgan davrda o‘tkaziladigan urf-odat va marosimlarni ifodalovchi leksik birliklar semantikasi Qoraqalpog‘iston hududida ham nikoh to‘ylari o‘z ibtidosidan boshlanadi. Urf-odatlarini ifodalashda quyidagi lug‘aviy birliklar qo‘llaniladi: *sovchilikka borish, non sindirish, chimildiq bichar, sirg‘a taqar, ko‘rpa solar, kengash, kichik kengash, rapiyda kuydi.* Bu lug‘aviy birliklar semantik jihatdan nikoh to‘yi bilan bog‘liq urf-odatlarini ifodalaydi. Shularning ichidan sovchilikka to‘xtalib o‘tsak. **Sovchilik** - biror xonadonning voyaga yetgan qizini kelinlikka so‘rab borish odati. Sovchilik terminining etimologiyasida bu so‘z "sab" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "so‘z", "gap" ma‘nolarini anglatadi. Sab so‘zi bilan birga saw so‘zi omonim sifatida VI-VIII asrlarda qo‘llanilgan. VI-IX asr yozma obidalarida "sab", "saw"

¹ Одилов.Ё. // Тил ва менталитет. Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент: 2021. №3. -С. 44.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shakllarida ishlatilgan, X-XI aslarga kelib bo‘lsa, "sav" va "so‘z" ko‘rinishda o‘zgargan. Ammo ayrim so‘z tarkibida "sav" shaklida uchratishimiz mumkin. "Sovchi" so‘zidagi "sow" aynan qadimgi turkiy tildagi "sav" degan xulosaga kelamiz. Sovchilik to‘g‘risidagi ilk ma‘lumotlar 7-8 asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklari uchraydi. "Irq bitigi" ("Fol kitobi")da esa "sab"- so‘z, "sabchi" - xabarchi, so‘z keltiruvchi ma‘nosida qo‘llanilgan. Ko‘rib turganingizdek, barcha o‘rinlarda "sab" so‘zi "so‘z, gap" ma‘nosida kelmoqda. Shu so‘z va gaplarni yetkazuvchi kishiga esa "sabchi" atamasi qo‘llangan.² Mazkur so‘z keyinchalik turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab "sovchi" ko‘rinishiga kelib qolgan. Qiziqarlisi shundaki, sovchi bir tomondan ikkinchi tomonga xabar yetkazuvchi shaxs hisoblanadi. Ular qanday xabar yetkazishidan qat’iy nazar ularga hech qanday ta’sir o‘tkazilmagan. Aynan mana shu holat bugungi kunda ham saqlanib qolingan. Ikki tomon vakillari o‘rtasidagi ilk qarindoshlik rishtalari aynan sovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Sovchi bo‘lib borishga esa ko‘pni ko‘rgan obro‘li insonlar tanlanadi. Shuningdek, sovchi bo‘lib boradigan odam qizil va oq ot tanlagan. Sovchilar bu ezgu ishda hech qachon qora otdan foydalanmagan. Chunki qora rang ularning diniy tasavvurlarida yovuzlik ramzi hisoblangan.³ Sovchilar ishni bitirib kelishsa ularga sovg'a-salomlar, sarpolar berilgan. Shuning uchun ham sovchi bo‘lishga har jihatdan so‘zomol, tili shirin, notiq insonlar tanlangan.

Sovchi atamasi O‘zbekistonni har joyida har xil nomlanishini guvohi bo‘ldik. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbeklar tilida "sovchi" "qiz aytiruvchi", "quda tushdi" deyiladi. Qoraqalpoqlarda ularni "жаушылар" "қыз айттырыушылар", "қуда тусиушылер" deb yuritiladi. Qashqadaryo O‘zbek shevalarida bu so‘z bir necha variantlarda "совць, сәвць, жәвць, зәвць" tarzida qo‘llaniladi. Turkman tilining shimoliy lahjalarida - **sawçi** formasida, qirg‘iz tilining Chuy vodiysi lahjalarida "жуучу" shaklida uchraydi.⁴ Bu so‘z Namangan aholi vakillari tilida "жарчи", "жаччи" kabi, Farg‘onada "sovchi", "yovchi", Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida "sovchi" va Buxoro viloyati Olot tumanida "sovchi" yoki "elchi" tarzida qo‘llaniladi. Amudaryo tumani o‘zbeklari tilida ham "sovchi" shakli mavjud, lekin "shira keldi" shakli ko‘proq iste’moldadir. Jarchi variantining paydo bo‘lishi ham bu jarayon bilan bog‘liq. Metonimik ma‘no taraqqiyotining bir ko‘rinishi. Ya’ni sovchi butun qabilaga va urug‘doshlarga da’vat qilib, qondoshlariga jar solgan, ularni yig‘ib oqlik bilan isbotlagan. Butun dunyoda yengilganlik belgisi oqlik hisoblanib, janglarda ham

² Махмуд Кошгарий. Девону лугатит турк . – Т., 1960. Т. 3. -С.169.

³ Аширов А. Узбек халкининг кадимий еътикод ва маросимлари. Алишер Навоий номидаги Узбекистон Миллий кутубхонаси. -Тошкент: 2007. -С. 89.

⁴ Madaminova Ra’no. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida etnografizmlarning areal tadqiqi. -Hindiston: 2022. -С. 2

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shunday bo‘lgan. Avvallari bir parcha oq mato berilgan ekan. Hozir oqlik taraqqiyot natijasida turli narsalarga o‘zgarib ketgan.

Fotha to‘yi - buni Ellikqa‘la turkmanlari tilida *"qalin o‘tirish"* *"qalin kesildi"* deb aytiladi. Kuyov tarafdin tog‘aralar ya‘ni *"dasturxon"* olib kelinadi. Bu turkmanlarda ham bo‘lib, o‘n ikki dasturxon olib boriladi. Qoraqalpoqlarda *"tuyinshek"* deydi. Odatda, bu marosimda eng yaqin va tabarruk qarindoshlar ishtirok etishib, ikki tomonning quda bo‘lishiga rozilik belgisi sifatida oqlik beriladi. Qoraqalpoqlarda va turkmanlarda bir ikki kun o‘tgach kuyov tomon erkaklari borib to‘yni belgilashga ruxsat oladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asrlar osha sayqallanib kelayotgan, ajdodlarimizdan bizga meros bu kabi urf-odatlar, xalqning milliyliqi, madaniyati, turmush tarzini ifodalovchi til tizimidagi muhim lug‘aviy vositalar bo‘lib, shu xalq ma‘naviyati, madaniyati haqida muhim xulosalarga kelish uchun keng imkoniyat yaratadi. Nikoh to‘yi-marosimi bilan bog‘liq etnografizmlarda leksik birliklarning ba‘zi xalq tilda bir xil nomlanishi, ba‘zilarida bo‘lsa shu so‘zni boshqa variantda qo‘llanilishining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Одилов.Ё. Тил ва менталитет. // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент: 2021. №-3, -С. 44.
2. Махмуд Кошгарий. Девону лугатит турк . – Т., 1960. Т. 3. -С.169.
3. Аширов А. Ўзбек халкининг кадимий еътикод ва маросимлари. Алишер Навоий номидаги Узбекистон Миллий кутубхонаси. -Тошкент: 2007. -С. 89.
4. Madaminova Ra‘no. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida etnografizmlarning areal tadqiqi. - Hindiston: 2022. -С. 2